



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(7)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 258 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы: современные педагогические подходы.....	86
Родина Ирина Витальевна	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy identikligini shakllantirishda psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi yondashuvlar	91
Feruz Tohirova	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	99
Islomova Mushtaribonu Akram qizi	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	104
Nafisa Tuxtasinova	
Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari	108
To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova	
Zamonaviy ta'lim oluvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning yangicha yondashuvi	113
Xudayberdiev Inom Xasanovich	
Yoshlar oilalarda ekologik madaniyati rivojlanishida turar joy muhiti va gender yondashuvlarining ahamiyati	117
Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida O'simliklar mavzusini o'rgatish metodikasi	122
Normurotova Aziza Karim qizi, Fattoyeva O'g'iloy Ashurqulovna	
Inklyuziv ta'lim o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda robototexnika asosidagi assistiv texnologiyalar - "Power band" va "Quvvat qo'lqop" samaradorligi.....	127
Alimardanova Sitora Ikrom qizi, To'rayev Rasul Nortoijiyevich	
Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sport mashg'ulotlarining innovatsion ahamiyati	133
Aminov Botir Umidovich	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish	138
Saydanova Dilafuz Sadirdinovna	
Ilmiy-tadqiqotchi ayollarda akademik o'zlik shakllanishi: O'zbekiston sharoitida motivatsion omillar va ijtimoiy-pedagogik aralashuv zarurati	142
Egamqulova Iroda Safar qizi	
Texnika oliygohlarida nogironligi mavjud talabalarning ilmiy kompetentligini rivojlantirish uchun "Adaptiv tadqiqot" interaktiv metodini ishlab chiqish.....	148
Gimayeva Liliya Maskurovna	
Maktab boshqaruvida raqamli monitoring va tahlil tizimlaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi...	153
Imamaliyev Ulugbek Turapbayevich	
Onlayn qimor o'yinlariga tobe bo'lgan harbiy xizmatchilar bilan psixokorreksiya ishlarini olib borish tartibi..	157
Olimov Azamat Qahramon o'g'li	
Rusiyzabon o'quvchilarning o'zbekcha bog'lanishli nutqini o'stirishda mashqlarning o'rni	163
Salisheva Zilola Ismoilovna	
Xorijiy mamlakatlar tajribasida raqamli ta'lim va raqamli savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslari....	169
Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi	
Ko'p madaniyatli kompetensiyani rivojlantirish modelini amalga oshirishning tashkiliy va pedagogik mexanizmlari va kutilgan natijalari	174
Vasilyeva Elmira Raisovna	
The Specifics of the Formation of Systems Thinking in Technical Education, Methods and Means of Development.....	178
Yusupova Liliya Fanovna	
Individual yondashuv asosida ko'zi o'jiz o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish metodikasi.....	183
Abdullayev Oybek Alisher o'g'li	

Yaqin masofalarga yugurishda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish usullari.....	190
<i>Abduqahhorov Nuriddin Xabibulloyevich</i>	
Darslik yozish mas'uliyati.....	194
<i>Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi</i>	
Mobil ta'lim texnologiyalari vositalari yordamida darslarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish	198
<i>Mamasoliyev Akmaljon Azizjon o'g'li</i>	
Yengil atletika qisqa masofaga yugurish turini o'rgatishda bosqichma-bosqich tayyorlash metodikasi	202
<i>Omonov Shohrux Orzimurot o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning o'zbek tamaddunidagi o'rni xususida ba'zi mulohazalar	206
<i>Tasbolatova Yeliza Yesey qizi</i>	
The Relationship Between Students' Learning Motivation and Academic Procrastination.....	209
<i>Odilbekov Mansurbek Maxmudjon ugli</i>	
"Beg'uborlik ovozi" va o'zini namoyon etish makoni.....	215
<i>Q. M. Ibadullayev</i>	
Формирование лингвокультурологи-ческой компетенции иноязычных студентов в цифровой образовательной среде.....	219
<i>Наталья Николаевна Розикова</i>	
Criteria, Indicators, and Levels for Developing Pre-Service EFL Teachers' Auditive Competence	223
<i>Alibekova Mahzuna Alisher kizi</i>	
Summary of the Cell Elements in Dental Science	229
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
A Customised Method for Treating Generalised Periodontitis and Predicting Cardiovascular Problems Using Salivary Proteomic Profiling	234
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababyan I. R.</i>	
Avtomobilsozlik yo'nalishi talabalarida kommunikativ kompetensiyani raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish.....	239
<i>G. Sh. Doniyorova</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish xususiyatlari.....	242
<i>Dusanov Shuxrat Abdiraakovich</i>	
Ijro etuvchi funksiyalar buzilishi va diqqat-yetishmasligi giperaktivlik buzilishi (DEHB): Barkli yondashuvi... 246	
<i>Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna</i>	
Raqamli texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish yo'llari.. 248	
<i>Abdullayev Sherzodbek</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda "Hard Skills" va "Soft Skills" integratsiyasini ta'minlashning pedagogik-psixologik tizimi.....	251
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA “HARD SKILLS” VA “SOFT SKILLS” INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK TIZIMI

Xolmatova Dilshoda Sherali qizi

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
 Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda akademik (Hard Skills) va shaxsiy-ijtimoiy (Soft Skills) ko'nikmalar integratsiyasini ta'minlashning pedagogik-psixologik tizimi yoritilgan. Zamonaviy mehnat bozori va texnologik taraqqiyot (sun'iy intellekt, avtomatlashtirish) sharoitida gumanitar kompetensiyalar - emotsional intellekt, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash va moslashuvchanlikning o'rni ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, 3–7 yoshli bolalarning psixofizik xususiyatlari, ularning tafakkuri va nutq rivojlanishi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar (Dr. Becky Kennedy metodikasi, o'yin orqali o'rganish) tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, Hard Skills, Soft Skills, emotsional intellekt, o'yin orqali o'rganish, empatiya, pedagogik-psixologik tizim, kreativlik.

Abstract: This article examines the pedagogical-psychological system of integrating academic (Hard Skills) and socio-personal (Soft Skills) skills in preschool children. It scientifically substantiates the role of humanitarian competencies – such as emotional intelligence, critical thinking, teamwork, and adaptability – in the context of the modern labor market and technological progress (artificial intelligence, automation). The psychophysical characteristics of children aged 3–7, the development of their thinking and speech, and modern pedagogical approaches (Dr. Becky Kennedy's methodology, play-based learning) are analyzed.

Key words: Preschool education, Hard Skills, Soft Skills, emotional intelligence, play-based learning, empathy, pedagogical-psychological system, creativity.

Аннотация: В данной статье рассматривается педагогико-психологическая система интеграции академических (Hard Skills) и социально-личностных (Soft Skills) навыков у детей дошкольного возраста. Научно обоснована роль гуманитарных компетенций – эмоционального интеллекта, критического мышления, командной работы и адаптивности – в условиях современного рынка труда и технологического прогресса (искусственный интеллект, автоматизация). Анализируются психофизические особенности детей 3–7 лет, развитие их мышления и речи, а также современные педагогические подходы (методика Dr. Becky Kennedy, обучение через игру).

Ключевые слова: дошкольное образование, Hard Skills, Soft Skills, эмоциональный интеллект, обучение через игру, эмпатия, педагогико-психологическая система, креативность.

KIRISH


Bugungi kunda mehnat bozori, ijtimoiy hayot va ta'lim tizimi insoniyat oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'yimoqda. Agar bundan bir necha o'n yillar muqaddam insonning faqatgina muayyan tor mutaxassislik bo'yicha bilimlari (akademik ko'nikmalari) uning hayotda va mehnat faoliyatida muvaffaqiyat qozonishi uchun yetarli bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu paradigmada tub burilish sodir bo'ldi. Endilikda shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi uning nafaqat “nimalarni bilishi”, balki “boshqalar bilan qanday muloqot qilishi”, “o'zgarishlarga qanchalik tez moslasha olishi” va “hissiyotlarini qanday boshqarishi” bilan belgilanmoqda.

Pedagogika va psixologiya fanlariga kirib kelgan, o'zbek tilida “yumshoq ko'nikmalar”, “gumanitar kompetensiyalar” yoki “shaxslararo moslashuvchanlik malakalari” deb yuritiluvchi Soft skill tushunchasi aynan mana shu ehtiyojdan tug'ildi. Soft skill insonning o'z ichki salohiyatini ro'yobga chiqarishi, ijtimoiy muhitda samarali integratsiyalashuvi, emotsional muvozanatni saqlashi, muammoli vaziyatlarda konstruktiv va kreativ qarorlar qabul qila olishini ta'minlovchi universal, kasbiy sohaga bog'liq bo'lmagan shaxsiy fazilatlar va xulq-atvor kompetensiyalari majmuasidir.

Ushbu tushunchaning genezisi AQSh harbiy tizimidagi tadqiqotlarga borib taqaladi. 1960-yillarning oxirlarida AQSh armiyasi mutaxassislari harbiy xizmatchilarning tayyorgarlik darajasini o'rganish davomida faqatgina harbiy texnikani boshqarish (mashinistlik, otish va h.k.) ko'nikmalari muvaffaqiyatli g'alabani to'liq ta'minlay olmasligini payqashdi. Askarlar va qo'mondonlar o'rtasidagi samarali muloqot, jamoaviy ruh, stressga chidamlilik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati jang taqdirini hal qiluvchi asosiy omillar ekanligi aniqlandi. Aynan o'sha davrdan boshlab harbiy va boshqaruv ilmlarida texnik ko'nikmalar "Hard skills" (qattiq ko'nikmalar), shaxsiy-ijtimoiy ko'nikmalar esa "Soft skills" (yumshoq ko'nikmalar) deb atala boshlandi.

Zamonaviy taraqqiyot bosqichida, xususan, Jahon Iqtisodiy Forumi (World Economic Forum - WEF) o'zining muttasil chop etiladigan "The Future of Jobs Report" ("Kasblar kelajagi hisoboti") tahlillarida ta'kidlashicha, kelajakda an'anaviy kasblarning qariyb 45–50 foizi avtomatlashtiriladi va sun'iy intellekt tomonidan almashtiriladi. Biroq, sun'iy intellekt va robotlar hech qachon almashtira olmaydigan insoniy fazilatlar mavjudki, bular - emotsional intellekt, empatiya, kreativlik, moslashuvchanlik va strategik fikrlashdir. Shuning uchun ham soft skill ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunda shunchaki qo'shimcha talab emas, balki shaxs rivojlanishining, inson kapitali taraqqiyotining strategik poydevoridir.

Ushbu poydevor esa inson hayotining eng sezgir va fundamental davri - maktabgacha yoshlik davridan boshlab qo'yilishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Inson faoliyati va kompetensiyalarini tizimli tahlil qilish uchun "Hard skills" va "Soft skills" tushunchalarining o'zaro farqlari hamda ularning o'zaro aloqadorlik dialektikasini tushunish lozim(1-rasm).



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hard skills (ingliz tilidan olingan bo'lib, "qattiq ko'nikmalar" degan ma'noni anglatadi) - bu insonning muayyan kasbiy yoki texnik faoliyatni yuqori darajada bajarishi uchun zarur bo'lgan, rasmiy ta'lim muassasalarida maxsus dasturlar asosida o'rgatiladigan hamda aniq mezonlar asosida o'lchash, baholash va tekshirish mumkin bo'lgan kompetensiyalar majmuasidir. Ushbu ko'nikmalar an'anaviy shaxsiy sifatlardan farqli ravishda insonning mantiqiy-analitik fikrlashi, muayyan texnologiyalar, asbob-uskunalar, qonun-qoidalar, yo'riqnomalar va formulalar bilan bevosita ishlay olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv kompetensiyaviy ta'lim nazariyasini ishlab chiqqan David McClelland, Richard Boyatzis hamda Lyle M. Spencer Jr.ning ilmiy tadqiqotlarida ham asoslab berilgan. Ular kasbiy muvaffaqiyatni faqat texnik bilimlar emas, balki kompetensiyalar majmui belgilashini ta'kidlaydilar.



- *Misollar:* Harflarni tanish va o'qishga tayyorgarlik, sanash, rang va shakllarni ajrata olish, qalam hamda bo'yoqlardan foydalanish, qaychi bilan kesish, konstruktor yig'ish, she'r yod olish, rasm chizish, oddiy kompyuter yoki planshetdan foydalanish, ingliz tilidagi sodda so'zlarni bilish, musiqa asboblari oddiy chalish, pazl yig'ish kabi ko'nikmalar kiradi.

- *Xususiyati:* Bu ko'nikmalar inson miyasining chap yarim shari faoliyati (mantiqiy, analitik fikrlash) bilan bog'liq bo'lib, asosan yo'riqnomalar, qoidalar va formulalar asosida ishlaydi.

Soft skills (ingliz tilidan olingan bo'lib, "yumshoq ko'nikmalar" degan ma'noni anglatadi) - bu insonning boshqalar bilan samarali muloqot qilishi, ijtimoiy muhitga moslashishi, o'z his-tuyg'ularini boshqarishi hamda turli hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishini ta'minlovchi kompetensiyalar majmuasidir. Ushbu ko'nikmalar an'anaviy akademik bilimlardan farqli ravishda insonning shaxsiy sifatleri, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo'ladi. Soft skill ko'nikmalarining mazmuni va amaliy ahamiyati Daniel Golemanning emotsional intellekt nazariyasi hamda Richard Boyatzisning kompetensiyaviy yondashuviga oid tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning fikricha, emotsional intellekt, empatiya, muloqot va hamkorlik shaxsning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardandir.

- *Misollar:* Kelishuvchanlik, liderlik, jamoaviy hamkorlik, empatiya, vaqtni boshqarish (time management), stress ostida ishlay olish, ijodkorlik.

- *Xususiyati:* Bu ko'nikmalar ko'proq miyaning o'ng yarim shari (emotsiya, kreativlik) va ikki yarim sharning o'zaro integratsiyalashgan faoliyati hamda shaxsning emotsional intellekti bilan uzviy bog'liqdir.

4. Garvard Universiteti, Karnegi Jamg'armasi va Stenford Tadqiqot Markazi tomonidan o'tkazilgan qo'shma ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar shuni isbotladiki, insonning kasbiy muvaffaqiyatining 85 %i uning yaxshi rivojlangan soft skill ko'nikmalariga bog'liq bo'lib, faqatgina 15 %i hard skill (texnik bilimlar) hisobiga to'g'ri keladi. Maktabgacha ta'lim kontekstida bu formula juda muhim ahamiyatga ega. Ko'pincha ota-onalar va ba'zi an'anaviy yondashuv tarafdori bo'lgan pedagoglar maktabgacha yoshdagi bolaga faqat "hard skill" unsurlarini (harflarni yodlatish, yozishni o'rgatish, yuzgacha sanashni majburlash) singdirishga harakat qiladilar. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, 5–6 yoshida o'qish va yozishni mukammal bilgan (hard skill), lekin tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olmaydigan, mag'lubiyatni ko'tara olmaydigan, hissiyotlarini boshqara olmaydigan (soft skill past) bola maktab muhitiga moslasha olmaydi (dezadaptatsiyaga uchraydi) va dars o'zlashtirishi pasayib ketadi. Aksincha, muloqotga kirishuvchan, kreativ va o'ziga ishongan bola har qanday akademik bilimlarni (hard skill) juda qisqa muddatda va stresssiz o'zlashtirib oladi.

Maktabgacha yosh (3 yoshdan 6–7 yoshgacha) - shaxs psixofizik rivojlanishining eng qaynoq, moslashuvchan davridir. Aynan shu davrda miya neyronlarining o'zaro bog'liqligi shakllanadi. Ushbu davrda soft skill tarkibiga kiruvchi fundamental kompetensiyalar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Soft skill ko'nikmalarining mazmunini quyidagi asosiy komponentlar orqali tushuntirish mumkin:

1. Kommunikativ ko'nikmalar - bu insonning boshqalar bilan samarali muloqot qilishi, o'z fikrini aniq va ravon ifodalashi, tinglash madaniyatiga ega bo'lishi va dialogga kirisha olishidir. Maktabgacha yoshda bu ko'nikma bolaning o'zini tanishtirishi, savol berishi, fikrini oddiy gaplar orqali ifodalashi orqali shakllanadi.
2. Emotsional intellekt - bu o'z hissiyotlarini anglash, ularni boshqarish hamda boshqalarning hissiyotlarini tushunish qobiliyatidir. Bola o'zining quvonch, xafa bo'lish, qo'rquv kabi hissiyotlarini anglay boshlaydi va asta-sekin ularni nazorat qilishni o'rganadi.
3. Tanqidiy fikrlash esa voqea va hodisalarni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish va xulosa chiqarish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshda bu ko'nikma "Nima uchun?", "Qanday qilib?" kabi savollar orqali rivojlanadi.
4. Muammo yechish ko'nikmasi - bola turli vaziyatlarda mustaqil yechim topishga harakat qiladi. Masalan, o'yin jarayonida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish orqali u bu ko'nikmani rivojlantiradi.
5. Jamoada ishlash ko'nikmasi - bu hamkorlik qilish, navbat kutish, boshqalarni hurmat qilish va umumiy maqsad sari harakat qilishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshda bu ko'nikma ko'proq rolli o'yinlar orqali shakllanadi.
6. Moslashuvchanlik va kreativlik - bola yangi vaziyatlarga tez moslashishi, noodatiy yechimlar topishi va ijodiy fikrlashi orqali bu ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lim tizimida soft skill ko'nikmalarini shakllantirish - bolaning kelajakdagi yetuk shaxs, muvaffaqiyatli mutaxassis va baxtli inson bo'lib yetishishining kafolatidir. Agar biz bugun maktabgacha yoshdagi bolada emotsional intellekt, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va kreativlik kabi gumanitar kompetensiyalarni to'g'ri shakllantira olsak, kelajakda har qanday texnologik va ijtimoiy inqirozlarga tayyor bo'lgan, mustaqil va kreativ fikrlovchi yangi avlodni tarbiyalagan bo'lamiz. Pedagoglarning va ota-onalarning strategik vazifasi esa

- bolaga bilimlar yukini majburlab tiqish emas, balki uning ushbu yumshoq ko'nikmalari tabiiy ravishda, o'yin va erkin ijodiy faoliyat orqali kurtak otishi uchun qulay, boyitilgan va xavfsiz muhit yaratib berishdan iboratdir.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida soft skill ko'nikmalari shaxs muvaffaqiyatining muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonning kasbiy va hayotiy muvaffaqiyatida hard skill (texnik bilimlar)dan ko'ra soft skill ko'nikmalari ko'proq rol o'ynaydi. Ayniqsa, tez o'zgaruvchan zamonaviy jamiyatda moslashuvchanlik, kommunikativlik va muammolarni hal qilish qobiliyati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Soft skill ko'nikmalarining muhim jihati shundaki, ular an'anaviy dars berish orqali emas, balki faoliyat jarayonida, ayniqsa o'yin orqali shakllanadi. Chunki o'yin - bu bolaning tabiiy rivojlanish muhiti hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda soft skill ko'nikmalarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilardan iborat:

- Oilaviy muhit
- Tarbiyachi shaxsiyati va pedagogik yondashuvi
- Tengdoshlar bilan muloqot
- Ta'lim muhiti va o'yin sharoitlari

Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, soft skill ko'nikmalari bolaga majburan singdirilmaydi. Ular tabiiy ravishda, takroriy tajriba va faol ishtirok orqali shakllanadi. Tarbiyachining vazifasi esa bu jarayonni to'g'ri tashkil etish va yo'naltirishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tizimida soft skill ko'nikmalarini rivojlantirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Bola markazda bo'lishi
- Faol ishtirokni ta'minlash
- O'yin asosida o'qitish
- Individual yondashuv
- Ijroiy emotsional muhit yaratish

Shuningdek, soft skill ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida quyidagi pedagogik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- Play-based learning (o'yin orqali o'rganish)
- Inquiry-based learning (savol orqali o'rganish)
- Integratsiyalashgan ta'lim

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda pedagogika, psixologiya hamda maktabgacha ta'lim sohasiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosiy metodologik yondashuv sifatida tanlandi. Tadqiqot jarayonida soft skill va hard skill ko'nikmalarining nazariy asoslari, ularning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishidagi o'rni hamda zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati yoritilgan ilmiy manbalar o'rganildi.

Tadqiqotda qiyosiy-taqqoslash metodidan foydalanilib, hard skill va soft skill ko'nikmalarining mazmuni, shakllanish mexanizmlari hamda maktabgacha ta'lim jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlari o'zaro taqqoslandi. Ushbu metod orqali ularning farqli va umumiy jihatlari aniqlanib, soft skill ko'nikmalarining shaxs rivojlanishidagi ustuvor ahamiyati ilmiy asoslandi.

Shuningdek, tahlil va sintez metodlari yordamida ilmiy adabiyotlarda bayon etilgan nazariy qarashlar umumlashtirildi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativlik, emotsional intellekt, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, jamoada ishlash, moslashuvchanlik va kreativlik kabi soft skill ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tizimlashtirildi.

Tadqiqot davomida tizimli yondashuv metodidan foydalanilib, soft skill ko'nikmalarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, oilaviy muhit, tarbiyachining pedagogik mahorati, tengdoshlar bilan muloqot hamda rivojlantiruvchi ta'lim muhiti o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Natijada mazkur omillarning bolalarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni aniqlandi.

Bundan tashqari, umumlashtirish metodi asosida olingan ilmiy xulosalar tizimlashtirildi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida soft skill ko'nikmalarini samarali shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari soft skill ko'nikmalarini rivojlantirishda o'yin texnologiyalari, faol ta'lim metodlari, hamkorlikka asoslangan faoliyat hamda bolaga yo'naltirilgan yondashuvning yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Soft skill ko'nikmalari - bu shaxsning hayotiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy kompetensiyalar majmuasi bo'lib, ularni maktabgacha yoshdan boshlab shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, o'yin texnologiyalari ushbu jarayonning eng samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Inson hayotida 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr xuddi imoratning poydevoriga o'xshaydi. Bu davrda bolaning miyasi va asab tizimi juda tez rivojlanadi hamda xuddi toza qog'ozdek har qanday ma'lumot va tarbiyani o'ziga singdirib oladi. Agarda go'daklik davrida bola faqat jismoniy jihatdan o'ssa, bog'cha yoshida uning xarakteri, dunyoqarashi, odamlarga bo'lgan munosabati va his-tuyg'ularini boshqarishi shakllanadi. Shu sababli, bog'cha davri - shunchaki bolani maktabga tayyorlash emas, balki uning kelajakdagi hayotiy muvaffaqiyatini belgilab beruvchi eng muhim bosqichdir.

Tarbiyachi sifatida biz bolaning ushbu davrdagi xususiyatlarini bilsak, har bir bolaning qalbiga to'g'ri yo'l topa olamiz. Taniqli psixolog Jan Piaje tadqiqotlariga ko'ra, bog'cha yoshidagi bolalarning fikrlashi kattalarnikidan tubdan farq qiladi. Buni tushunish uchun 3 ta muhim narsani bilishimiz kerak:

- Ko'z bilan ko'rish va ushlab his qilish (ko'rgazmali-obrazli tafakkur): Bola quruq gapni yoki mavhum qoidalarni tushunmaydi. Unga "Vatanni sevish kerak" yoki "Sariq rang mana bu" deb shunchaki aytish foydasiz. Bola rangli rasmlarni ko'rishi, o'yinchoqlarni ushlab ko'rishi va jonli misollarni his qilishi shart. Shundagina u ma'lumotni chin dildan anglaydi.
- "Nima uchun?" davri: 4–5 yoshli bolalar tinmay savol beradi: "Quyosh nega issiq?", "Daryo qayerga oqadi?" Bu injiqlik emas, balki bolaning atrof-muhitni o'rganishga bo'lgan chanqoqligidir. Tarbiyachi bu savollardan charchamasligi, aksincha, ularni mantiqiy fikrlashga yo'naltirishi kerak.
- Boy tasavvur va fantaziya: Bolalar ertaklarga, o'yinchoqlarning "jonli" ekanligiga ishonishadi. Ular o'z qo'rquvlarini yoki orzularini xayol surish (fantaziya) orqali yengib o'tadilar.

Bog'cha yoshidagi bolalarda quvonch, g'azab, qo'rquv va xavotir juda tez almashadi. Ularning asab tizimi hali his-tuyg'ularni jilovlashni bilmaydi.

Zamonaviy psixologiya eksperti Dr. Becky Kennedy bolalar tarbiyasida inqilobiy yondashuvni taklif etadi. Uning fikricha, bolaning yig'lashi yoki jahli chiqishi - bu "yomon xulq" emas, balki yordam so'rashidir. Eski usulda bolani jazolash yoki ovutishga harakat qilinardi. Yangi va samarali usul esa – bolaning hissiyatini tan olish va uni tushunishdir(1-jadval).

1-jadval: **Tarbiyachilar uchun amaliy farqlar**

Eski va samarasiz yondashuv	Dr. Becky Kennedy usuli	Bolaga psixologik ta'siri
"Yig'lama! Arzimagan narsaga yig'layverasanmi? Senga o'yinchoq berolmayman!"	"Sen hozir juda xafasan, chunki bu o'yinchoqni o'ynamoqchi eding. Seni tushunaman. Lekin hozir navbat boshqaniki, kutib turamiz."	Bola o'z tuyg'ularidan qo'rqmaydi, ularni jilovlashni va muammoni tinch yo'l bilan hal qilishni o'rganadi.
"Qo'rqadigan hech narsa yo'q! Katta bola ham qo'rqadimi?"	"Bu xona senga qorong'i va qo'rqinchli tuyulyaptimi? Yur, birga borib chiroqni yoqamiz."	Bola tarbiyachiga ishonadi, o'zini xavfsiz his qiladi va ichki qo'rquvlarini yengadi.

O'z tuyg'ularini tushungan bola ularni boshqarishni ham o'rganadi. Bu kelajakda uning stressga chidamli, o'ziga ishongan va aqlli inson bo'lib yetishishiga yordam beradi.

3 yoshgacha bola faqat ota-onasi bilan band bo'lsa, bog'cha yoshida u tengdoshlari dunyosiga kiradi. Bu yerda bola jamiyat a'zosi bo'lishni o'rganadi:

- "Men"dan "Biz"ga o'tish: Bola hamma narsa faqat uniki emasligini, boshqalarning ham xohishlari borligini tushunadi.
- Navbat kutish va bo'lishish: O'yinchoqlarni navbat bilan o'ynash, do'stlariga ulashish orqali bolada o'zaro hurmat shakllanadi.
- Qo'l motorikasi va nutqning bog'liqligi: Bolaning qo'l barmoqlari harakati (loy qorish, rasm chizish, lego yig'ish) miyaning nutq markazini rivojlantiradi. Qo'li yaxshi harakat qilgan bolaning nutqi ham boy va chiroyli bo'ladi. Nutq esa bolaga do'stlari bilan to'g'ri muloqot qilish va kelishish uchun eng asosiy quroldir.

Psixologiyada eng asosiy qoida bor: bog'cha yoshidagi bolaning eng asosiy faoliyati o'yindir. Bola o'yin orqali hayotni, kattalar dunyosini o'rganadi. "Shifokor–bemor", "Do'kon–mijoz", "Oila" kabi rolli o'yinlarda bola juda ko'p hayotiy ko'nikmalarni (zamonaviy tilda "soft skills" yoki yumshoq ko'nikmalarni) egallaydi:

- Hamkorlik (jamoada ishlash): Birgalikda qumdan qasr qurish yoki o'yin qoidalariga amal qilish orqali jamoada ishlashni o'rganadi.
- Ijodkorlik (kreativlik): Oddiy tayoqchani ot yoki termometr o'rnida tasavvur qilib o'ynash bolaning ijodiy fikrlashini osmonga ko'taradi.
- Moslashuvchanlik: O'yin davomida qoidalar o'zgarib tursa ham, bola yangi sharoitga moslashishni o'rganadi.

Bog'chadagi bolalarning hammasi bir xil emas. Bir guruhda mutlaqo turlicha bo'lgan bolalar yig'iladi:

1. Harakatchan va kirishuvchan (ekstrovert): Tez do'stlashadi, yetakchi bo'lishni xohlaydi, lekin qoidalarga bo'ysunish va tinch o'tirishga qiynaladi.
2. Yuvosh va tortinchoq (introvert): Shovqinni yoqtirmaydi, begona muhitga qiyin ko'nikadi, lekin ichki dunyosi juda boy, sinchkov bo'ladi.
3. Ijodkor va xayolparast: Chiroyli rasmlar chizadi, noodatiy g'oyalar beradi, lekin aniq va tartibli topshiriqlarda qiynaladi.
4. Mantiqiy fikrlovchi: Konstruktor va legolarni yig'ishni, hisob-kitobni yaxshi ko'radi, lekin tuyg'ularini ifodalashda qiynalishi mumkin.
5. Tarbiyachining vazifasi: Hamma bolani bir xil qolipga solishga urinmaslik kerak. Tortinchoq bolani majburlab sahnaga olib chiqish yoki o'ta harakatchan bolani soatlab qimirlatmay o'tqazish xatodir. Tarbiyachi o'yinlarni shunday tashkil qilishi kerakki, har bir bola o'z iqtidori va kuchli jihatini ko'rsata olsin.

Zamonaviy bog'cha interaktiv doskalar va eng qimmat o'yinchoqlar bilan ta'minlangan bo'lishi mumkin. Ammo tarbiyachida mehr va empatiya (bolani tushunish qobiliyati) bo'lmasa, bu texnikalarning hech qanday foydasi yo'q. Tarbiyachi - shunchaki bolalarga qarab turuvchi enaga emas. U bolaning kelajagini quruvchi me'mordir. Eng muhimi, bola tarbiyachining aytgan so'zlaridan ko'ra, uning harakatlaridan, ovoz ohangidan va muammolarni qanday hal qilishidan namuna (andoza) oladi.

Bog'cha yoshidagi bolaning rivojlanishi - yaxlit bir zanjirdir. Uning fikrlashi, nutqi, his-tuyg'ulari va do'stlashish ko'nikmalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bu zanjirni birlashtirib turuvchi asosiy kuch esa o'yindir. Shuning uchun, bolalarni qat'iy tartib va qonunlar bilan qo'rqitish yoki ularni aqlli qilish uchun ortiqcha zo'riqtirish kerak emas. Ularga xavfsiz va mehrga to'la muhit yaratib berish kifoya.

Tarbiyachining kreativligi, individual yondashuvi va cheksiz empatiyasi bilan mustahkamlangan bunday psixologik-pedagogik tizim nafaqat bolani maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlaydi, balki kelajakda jamiyat uchun kompetentli, ruhan sog'lom, moslashuvchan va ijodiy fikrlovchi shaxs poydevorini qo'yadi. Shaxs poydevorining mustahkamligi esa aynan mana shu 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda shakllangan yangi psixologik sifatlarning sifati bilan kafolatlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim tizimida soft skill ko'nikmalari shaxsning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yosh davri kommunikativlik, emotsional intellekt, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, jamoada ishlash, moslashuvchanlik va kreativlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish uchun eng qulay bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu davrda tashkil etilgan maqsadli pedagogik faoliyat bolaning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyati hamda ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, hard skill ko'nikmalari bolaning akademik tayyorgarligini ta'minlasa, soft skill ko'nikmalari uning shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishining asosini tashkil etadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim jarayonida ushbu ikki turdagi ko'nikmalarni o'zaro uyg'unlikda rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida soft skill ko'nikmalarini rivojlantirishda o'yin texnologiyalari, hamkorlikka asoslangan faoliyat, muammoli vaziyatlar, interfaol metodlar hamda bolaga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarning samaradorligi aniqlandi. Mazkur yondashuvlar bolalarda mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati, o'z hissiyotlarini boshqarish va jamoada ishlash kompetensiyalarining izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida soft skill ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus metodik tavsiyalar va dasturlarni ishlab chiqish;
- tarbiyachilarning soft skill kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha malaka oshirish kurslari mazmunini takomillashtirish;



- ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalari, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va hamkorlikdagi faoliyat ulushini kengaytirish;
- ota-onalarni bolalarda soft skill ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoniga faol jalb etish hamda ular uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- bolalarning soft skill ko'nikmalarini baholash mezonlari va diagnostika vositalarini takomillashtirish;
- maktabgacha ta'lim dasturlariga kommunikativ, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tizimli ravishda kiritish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda soft skill ko'nikmalarini izchil rivojlantirish ularning intellektual, emotsional va ijtimoiy kamolotini ta'minlash, keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli tayyorlash hamda raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va ijodkor shaxsni tarbiyalashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5- fevraldagi PF- 19 son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" farmoni
2. Mirziyoyev Sh.M. " Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.
3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. – Toshkent: Maktabgacha ta'lim vazirligi, 2022. – 56-87 -betlar (Monitoring va baholash qismi).
4. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. (Takomillashtirilgan ikkinchi nashr). – Toshkent: 2022. – 112-125-betlar (Rivojlanish xaritalari).
5. Azizxodjayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". – Toshkent: TDPU, 2006. – 92-105-betlar (Interaktiv o'yin metodikasi).
6. Dweck Carol. "Mindset: The New Psychology of Success" (Muvaffaqiyat psixologiyasi). – Ballantine Books, 2006. – 82-104-betlar (Bolalarda "o'sishga yo'naltirilgan fikrlash" (Growth Mindset)ni shakllantirish).
7. Gari Chepmen. "Bolalar uchun mehrning 5 ta tili". – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2018. – 22-110-betlar (Ota-onalar bilan muloqot qismi).
8. Goleman Daniel. "Emotional Intelligence" (Hissiy intellekt). – New York: Bantam Books, 2005. – 45-68-betlar (Bolalarda EQni shakllantirish metodikasi).
9. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. (Takomillashtirilgan ikkinchi nashr). – Toshkent: 2022. – 20-21-betlar.
10. Keldiyorova M. "Bolalar nutqini o'stirishda o'yinlarning o'ri". – Toshkent: "Niso poligraf", 2015. – 42-55-betlar (Kommunikativ ko'nikmalar).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(7)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.